



ASHTARXONIYLAR DAVRI TARIXIY OBIDALARI

Habibov Javlonbek

BDPI tarix ta’lim yo’nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Ashtarxoniylar davrida qurilgan asosiy tarixiy obidalar, ularning me’moriy xususiyatlari, badiiy bezaklari va diniy hayotdagi o’rni haqida so‘z yuritiladi. Nodir Devonbegi va Abdulazizxon madrasasi, Labi Hovuz majmuasi, Bahouddin Naqshband maqbarasi kabi yodgorliklar va ularning qurilish texnikasi tahlil qilinadi. Ushbu maqola O‘rta Osiyo madaniy merosini saqlash va uni yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Kalit so‘zlar: Ashtarxoniylar, Labi Hovuz, Abdulazizxon madrasasi, marmar, Nodir Devonbegi, Ko‘kaldosh madrasasi, Bolo-Hovuz masjidi.

Ashtarxoniylar (yoki Toqay-Timurlilar) sulolasi 1599-yildan 1753-yilgacha Movarounnahrda hukmronlik qilgan bo‘lib, Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasi hokimiyatdan ag‘darilgandan so‘ng faoliyatini boshlagan. Sulolaning asoschisi Jonibek sulton bo‘lib, u Ashtarxon (yoki Hojitarxon) shahzodalari avlodidan bo‘lgan. Joniylar sulolasining hukmronligi davrida Buxoro xonligi iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlandi. Ashtarxoniylar davrida me’morchilik avvalgi davrlar an‘analarini davom ettirib, ko‘plab yirik inshootlar va majmualar barpo etildi. Ushbu davrda Buxoro va Samarqand shaharsozlik markazlari bo‘lgan. Ayniqsa, Buxoro xonlari tomonidan qurilgan madrasa, masjid, maqbara va bozorlar alohida o‘rin tutadi. Me’morchilikda ulkan gumbazlar, keng peshtoqlar va rang-barang koshinlar ishlatilgan. Qulbobo Ko‘kaldosh va Abdulazizxon madrasalari, va Labi Hovuz ansambllari mashhur inshootlar sirasiga kiradi. Bu davr inshootlarining xususiyati nafis koshinkorlik, geometrik naqshlar va bezaklarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu davrda tarixiy islomiy me’morchilikning go‘zalligini saqlab qolish bilan birga, yangi uslublarni ham tatbiq qilishga harakat qilingan. Ashtarxoniylar davrida ko‘plab tarixiy obidalar qurilgan yoki qayta ta’mirlangan.



Labi Hovuz majmuasi – Buxorodagi mashhur me'moriy yodgorliklardan birisifatida XVII asrning boshlarida, Ashtarxoniylar hukmronligi davrida barpo etilgan. “Labi hovuz” nomi “hovuz bo'yida” degan ma'noni anglatadi, chunki majmuaning asosiy qismi hovuz atrofida joylashgan. Dastlab bozor maydoni bo'lgan maydon o'rtasida katta qovuz qazilib (1620 yillarda) atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan, xarsangtoshlardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Hovuzning eni 36 m, bo'yi 45,5 m, chuqurligi 5 m. Uning g'arbida Nodir Devonbegi xonaqosi, sharqida Nodir Devonbegi madrasasi, shimolida Ko'kaldosh madrasasi va Ernazar elchi madrasasi (afsuski, u saqlanmagan) qad ko'targan. Labi hovuz ansambli yodgorliklarini asosan Buxoro xoni Ashtarxoniylardan Imomqulixonning vaziri (tog'asi) Nodir Devonbegi [Nodir Mirzo Tog'ay ibn Sulton] qurdirgan. Hovuz atrofiga chinorlar ekilib, qadimiy Choyxona bo'lgan. Hozir bu yerda Xo'ja Nasriddin haykali o'rnatilgan, Yodgorliklar ta'mirlangan.

Bahouddin Naqshband maqbarasi. O'rta Osiyo tarixidagi eng muhim Ziyoratgohlardan biri bo'lib, unda mashhur tasavvuf piri Bahouddin Naqshband (1318–1389) dafn etilgan. Ashtarxoniylar davrida bu ziyoratgohni kengaytirish va obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Mazkur sulolaning hukmronligi davrida (1599–1753) naqshbandiylik tariqati diniy va siyosiy hayotda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli, bu davrda Naqshband maqbarasi nafaqat diniy markaz sifatida, balki siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ashtarxoniylar davrida Bahouddin Naqshband maqbarasi kengaytirilib, unga yangi bino va inshootlar qo'shilgan. Jumladan, xonaqoh, masjid, katta hovuz va boshqa binolar qurilib, maqbara ansamblining me'moriy qiyofasi boyitilgan. Bu qurilish ishlari asosan ziyoratchilar oqimini yanada kengaytirish va maqbarani yanada nufuzli ziyoratgohga aylantirish maqsadida amalga oshirilgan. Maqbaraning me'moriy xususiyatlari. Bahouddin Naqshband maqbarasi o'zining sodda va bejirim me'moriy uslubi bilan ajralib turadi. Ashtarxoniylar davrida maqbaraning asosiy qismi o'zgarmagan bo'lsa-da, majmua ichidagi xonaqohlar va masjidlar yangidan qurilib, ularni o'ziga xos naqshinkorlik va koshinkor texnikalar bilan bezashgan. Me'morchilikda islomiy naqshlar, islomiy va geometrik shakllardan keng



foydalanilgan. Bu bezaklar maqbaraning go‘zallik va ma’naviyligini oshirishga xizmat qilgan.

Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqohi (1622 yil, Buxoro) Nodir Devonbegi madrasasi mashhur Ashtarxoniy hukmdori Nodir Devonbegi tomonidan qurdirilgan. Ushbu madrasa va uning ro‘parada joylashgan xonaqoh tasavvuf ahli uchun markaz bo‘lib xizmat qilgan. Xonaqohda Sufiylar yig‘ilib, diniy va ma’naviy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan. Madrasa va xonaqoh majmuasi o‘zining bezaklari va muvozanatli me‘morchilik uslubi bilan e‘tiborga loyiqdir.

Masjidi Baland (XVII asr, Buxoro) Baland masjidi Ashtarxoniylar davrida qurilgan kichik, lekin juda go‘zal me‘moriy obidalaridan biridir. Masjidning ichki qismi nozik bezaklar va ganchkori bilan bezatilgan. Masjid gumbazli tuzilishga ega bo‘lib, o‘zining nafis naqshlari bilan ajralib turadi. Ko‘kaldosh madrasasi (qisman qayta qurilgan) Ko‘kaldosh madrasasi Buxoro shahrining eng yirik madrasalaridan biri bo‘lib, Ashtarxoniylar davrida qisman qayta tiklangan. Bu madrasa me‘morchilik va ta‘lim markazi sifatida Buxoroda katta obro‘ga ega bo‘lgan. Masjidi Kalon va minorasi (ta‘mirlangan) Ashtarxoniylar davrida Buxoroning markaziy me‘moriy yodgorliklaridan biri bo‘lgan Kalon masjidi va uning mashhur minorasi qayta ta‘mirlangan. Kalon minorasi o‘zining balandligi va o‘ziga xos me‘morchiligi bilan mashhur bo‘lib, masjid bilan birga bu davrning diniy va me‘moriy merosi sifatida saqlangan.

Bolo Hovuz masjidi. Ashtarxoniylar davrida qurilgan Bolo-Hovuz masjidi Buxoroda eng go‘zal va mashhur masjidlardan biridir. Uning baland Minori va keng ayvonlari bilan diqqatga sazovor. Masjid atrofidagi hovuz bilan birgalikda u Movarounnahr me‘morchiligida o‘ziga xos uslubni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov F. “Movarounnahr ilmiy va madaniy rivojlanishining Ashtarxoniylar davridagi xususiyatlari.” Samarqand: Ilmiy izlanishlar Nashriyoti, 2013.
2. Ma‘murov D. “O‘rta Osiyoda ilm-fanning yuksalish davrlari.” Samarqand: Davlat Universiteti nashriyoti, 2017.
3. Rashidov U. “Buxoroning me‘moriy merosi: Ashtarxoniylar davri.” Samarqand: O‘zbekiston Respublikasi Tarixiy Yodgorliklar nashriyoti, 2014.